

**ECONOMIC FOUNDATIONS FOR EXPANDING THE HEALTHCARE SERVICES
SECTOR IN THE REGIONS**

Matyakubova Nargiza Miraliyevna
Osiyo Xalqaro Universiteti 1st-year Master's
Student, Department of "Economics"

**XUDUDLARDA TIBBIY XIZMATLAR SEKTORINI KENGAYTIRISHNING
IQTISODIY ASOSLARI**

Matyakubova Nargiza Mir'aliyevna

Osiyo Xalqaro Universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrası 1-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarda xizmatlar sektorini rivojlantirish, xususan, Xorazm viloyatidagi tibbiy xizmatlar tizimini kengaytirish masalalari empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Abstract: This article analyzes the development of the service sector in regions, specifically examining the expansion of the medical services system in Khorezm region based on empirical data.

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы развития сектора услуг в регионах, в частности, расширения системы медицинских услуг в Хорезмской области на основе эмпирических данных.

Kalit so'zlar: xizmatlar sektori, tibbiy xizmatlar, hududiy rivojlanish, sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, tibbiy turizm, xususiy tibbiyot, sog'liqni saqlash infratuzilmasi.

Keywords: service sector, medical services, regional development, health economics, medical tourism, private healthcare, healthcare infrastructure.

Ключевые слова: сектор услуг, медицинские услуги, региональное развитие, экономика здравоохранения, медицинский туризм, частная медицина, инфраструктура здравоохранения.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sektori rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylangan. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 70-80% ini tashkil etadi va iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda xizmatlar sektorini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, sog'liqni saqlash xizmatlari nafaqat ijtimoiy, balki muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan strategik soha sifatida tan olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-278 "Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish va 2024-2030 yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (15.05.2024) hududlarda sog'liqni saqlash xizmatlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va aholi uchun sifatli tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Ushbu hujjat sog'liqni saqlash sohasida keng qamrovli islohotlarni



amalga oshirish, tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali kadrlar tayyorlash va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Jadval 1.

O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sektorining o'rni (2024 yil)

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
Aholi soni	2,009 mln kishi	O'zbekiston aholisining 5,3% i
Aholi zichligi	330 kishi/km ²	Milliy o'rtachadan yuqori
Hudud maydoni	6100 km ²	O'zbekiston maydonining 1,4%
Shaharlarda yashovchilar	32,4%	Milliy o'rtacha 50,5%
Qishloqlarda yashovchilar	67,6%	Qishloq aholisi ustunligi
O'rtacha yillik aholi o'sishi	1,8%	Yuqori tug'ilish darajasi
Tug'ilish darajasi	24,4‰	1000 kishi uchun
O'lim darajasi	4,3‰	1000 kishi uchun
18 yoshgacha aholi ulushi	36,4%	Yosh aholi yuqori ulushi
Mehnatga layoqli aholi	77,6%	16-60 yosh guruhi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, xizmatlar sektori 2024-yilda milliy yalpi ichki mahsulotning deyarli 40% ini tashkil etgan, bu esa uning iqtisodiyotdagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Tibbiy xizmatlar esa xizmatlar sektorining 6,2% ini yoki milliy YaIMning 2,4% ini ifoda etadi. Garchi bu ulush nisbatan kichik ko'rinsa ham, tibbiy xizmatlarning inson kapitaliga ta'siri, bandlik yaratish va multiplikator effekti nuqtai nazaridan ahamiyati juda katta.

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan va bir qator xususiyatlarga ega strategik hududlardan biridir. Viloyat 2 million 9 ming nafar aholisi, 6 ming 100 kvadrat kilometr maydoni va boy tarixiy-madaniy merosi bilan ajralib turadi. Xususan, Xiva shahri va uning ichki qal'asi Ichan-Qal'a UNESCO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu viloyatning turizm va bilan bog'liq xizmatlar, jumladan tibbiy turizm rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Jadval 2.

Xorazm viloyati va milliy o'rtacha tibbiy ta'minlanganlik ko'rsatkichlari (2024 yil)

Ko'rsatkich	Xorazm viloyati	Milliy o'rtacha	Farq (%)
10 ming aholiga shifokorlar soni	25,8 ta	28,6 ta	-9,7%
10 ming aholiga o'rta tibbiy xodimlar	83,0 ta	94,2 ta	-11,8%
10 ming aholiga shifoxona o'rindiqlari	32,2 ta	40,9 ta	-21,2%
Aholi jon boshiga tibbiy xizmatlar (ming so'm)	470 ming so'm	487 ming so'm	-3,4%
Tibbiy texnika ta'minlanganligi	58,3%	76,4%	-23,7%
Profilaktik ko'rikdan o'tganlar ulushi	68,4%	76,8%	-10,9%
Vaksinatsiya qamrovi	92,7%	94,6%	-2,0%

Manba: Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi, 2024

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Xorazm viloyatida 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni milliy o'rtachadan 9,7% kam, ya'ni viloyatda tibbiy kadrlar tanqisligi muammo hisoblanadi. O'rta tibbiy xodimlar soni ham 11,8% past. Shifoxona o'rindiqlari ta'minoti 21,2% ga kam, bu aholi tibbiy yordam olish imkoniyati cheklangan ekanligini ko'rsatadi. Yana bir ko'rsatkich - aholi jon boshiga tibbiy xizmatlar hajmi milliy o'rtachadan 3,4% ga past, ya'ni viloyat aholisi milliy o'rtachaga nisbatan 3,4% kam hajmda tibbiy xizmat olmoqda.

Viloyatda 2024-yilda jami tizimdagi muassasalar soni 189 ta, shundan 29 ta shifoxona xizmati ko'rsatuvchi muassasalar, 140 ta ambulator-poliklinika xizmati ko'rsatuvchi muassasalar,



hamda 430 ta xususiy tibbiy muassasa faoliyat yuritmoqda. Jami tibbiy xodimlar soni 22 490 nafarni, shu jumladan 5 826 nafar shifokor, 12 796 nafar o'rta tibbiy va 3 868 kichik tibbiy xodimlarni tashkil etadi. Tibbiy texnika bilan ta'minlanganli esa 75-80% ni tashkil etadi. Oxirgi yillarda xamma viloyatlarga Sog'liqni saqlash Vazirligi tomonidan chet davlatlarda ishlab chiqarilgan so'ngi zamonaviy tibbiy asbob uskunalar yetkazilib kelmoqda, bu esa o'z o'rnida aholiga yuqori tibbiy xizmat ko'rsatishda muxim o'rinni egallaydi.

Jadval 3.

Xorazm viloyati tibbiy muassasalari va xodimlar tarkibi (2024 yil)

Ko'rsatkich	Soni/Qiymat	Batafsil ma'lumot
Davlat shifoxonalari	29 ta	Tuman va shahar shifoxonalari
Jami shifoxona o'rindiqlari	6476 ta	O'rtacha 223 o'rindiq/shifoxona
Poliklinikalar va ambulatoriyalar	194 ta	Shahar va qishloq joylarda
Ixtisoslashtirilgan markazlar	13 ta	Kardiologiya, onkologiya va b.
Xususiy tibbiy muassasalar	430 ta	Klinikalar, diagnostika markazlari
Jami tibbiy xodimlar	22,490 nafar	Shifokor va o'rta xodimlar
Shifokorlar soni	5,826 nafar	Turli ixtisosliklar
O'rta tibbiy xodimlar	12,796 nafar	Hamshiralalar, feldsherlar
MRT apparatlari	3 ta	Urganch va Xivada
KT apparatlari	2 ta	Faqat viloyat markazida
Zamonaviy laboratoriya analizatorlari	18 ta	Asosiy muassasalarda

2024-yilda Xorazm viloyatida tibbiy xizmatlar hajmi 1 617 milliard so'mni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 125,4% o'sishni bildiradi. Xususiy tibbiyot sektori 127 milliard so'm yoki umumiy hajmning 19,8% ini ta'minladi, bu xususiy sektorning tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Tibbiy turizm yo'nalishi esa hali embrional bosqichda bo'lib, davlat muassasalarida yillik 102 bemor (asosan qo'shni Qoraqalpog'iston Respublikasi va Turkmanistonning Dashoguz viloyatlaridan) xizmat oldi va daromad 0,3 milliard so'mni tashkil etdi.

Xususiy sektor ulushining asta-sekin ortib borishi esa bozor mexanizmlarining sog'liqni saqlashda tobora muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil

29-oktabrdagi "2025-yilda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Murojaatida hududlarda, xususan, Xorazm kabi viloyatlarda sog'liqni saqlash xizmatlarini tubdan modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va aholi salomatligini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida alohida ta'kidladi.

Tibbiy xizmatlar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab xalqaro tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ushbu sohada asosiy nazariy paradigmalarni yaratgan olimlardan biri Michael Grossman (1972) hisoblanadi. Uning "Sog'lik uchun talab: nazariy va empirik tadqiqot" nomli fundamental ishida sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlar oddiy iste'mol emas, balki inson kapitaliga investitsiya sifatida qaralishi kerakligi ta'kidlangan. Grossman modeliga ko'ra, sog'lik inson kapitalining muhim komponenti bo'lib, u mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

William Savedoff va uning hamkasblari (2011) Lancet jurnalida chop etilgan maqolasida 156 ta mamlakatning 1995-2010 yillar ma'lumotlarini tahlil qilib, sog'liqni saqlash xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r=0,68$) mavjudligini aniqladi. Bu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, aholi jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot o'sish sur'ati ham yuqori. Ular shuningdek, universal sog'liqni saqlash



qamrovi nafaqat ijtimoiy adolatni ta'minlash, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash vositasi ekanligini ta'kidladi.

Viloyat aholisi 2 million 9 ming kishini tashkil etadi, o'rtacha yillik aholi o'sishi 1,9% ga teng, bu milliy o'rtachadan (0,2%) past. Tug'ilish darajasi 1000 kishiga 17,1 tani tashkil etib, bu ham milliy o'rtachadan past (0,2%). O'lim darajasi nisbatan past - 1000 kishiga 4,2 kishi. Bu demografik ko'rsatkichlar aholi yoshligini va kelajakda tibbiy xizmatlar talabining ortib borishini bildiradi.

Jadval 4.

Xorazm viloyatining epidemiologik ko'rsatkichlari (2024 yil)

Kasallik turi/Ko'rsatkich	Absolyut son	100 ming aholiga
Yuqumli kasalliklar (jami)	15,644	847
Sil kasalligi (yangi holatlar)	349	17,3
Gepatit B va C	892	48,3
OIV	119	6,2
Yuqumli bo'lmagan kasalliklar	363	18
Yurak-qon tomir kasalliklari	184,532	9,992
Qandli diabet	2878	143,2
Onkologik kasalliklar (yangi)	782	38,9
Nafas olish a'zolari kasalliklari	87,445	4,735

Epidemiologik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Xorazm viloyatida yuqumli kasalliklar darajasi sal balandroq, bu sanitariya-gigiena sharoitlari va profilaktik ishlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, sil kasalligi va hepatit yuqori, bu maxsus e'tibor talab qiladi.

Viloyatda jami 22 ta shifoxona faoliyat yuritadi, ularning jami sig'imi 2,802 o'rindiqni tashkil etadi. Poliklinikalar va ambulatoriya punktlari soni 194 taga yetadi, bu aholiga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish tarmog'ining nisbatan yaxshi rivojlanganligini ko'rsatadi. Shu qatorda, ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlar soni 11 ta ga yetdi, bu ko'plab murakkab kasalliklar bo'yicha ixtisoslashgan yordam sifati oshishini bildiradi. Xususiy tibbiy muassasalar soni 430 ta, bu xususiy sektorning rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bloom D.E., Canning D. Population Health and Economic Growth // World Bank Commission on Macroeconomics and Health Working Paper Series. – Washington: World Bank, 2008. – Paper No. 24. – 36 p.
2. Freeman R. The Politics of Health in Europe. – Manchester: Manchester University Press, 2000. – 287 p.
3. Grossman M. The Demand for Health: A Theoretical and Empirical Investigation. – New York: National Bureau of Economic Research, 1972. – 224 p.
4. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yillik statistik to'plami. – Urganch, 2024. – 186 b.
5. Джумаева, З.К. (2026). ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТЕХНОПАРКОВ В УСЛОВИЯХ ЮЖНОЙ КОРЕИ: УРОКИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА. *Библиотека статей Шоха*, 1 (1), 1032-1034.
6. Джумаева, З.К. (2025). ЗАРУБЕЖНЫЕ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ. *БИБЛИОТЕКА ШОХА*, 1 (13).
7. Jumayeva, Z. Q., & Izatova, N. N. (2025). GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O'TKAZISHNING MUHIMLIGI. *Modern Science and Research*, 4(6), 492-496.



8. Jumayeva, Z. Q. (2025). IMPLEMENTATION OF TRANSFORMATION PROCESSES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN UNDER COMPETITIVE CONDITIONS. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3(6), 57-64.
9. 9. Джумаева, З. (2025). НОВАЯ ТЕОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА: ЭВОЛЮЦИОННЫЙ ПОДХОД. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 869-873.
10. 10. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.
11. 11. Jumayeva, Z. Q., & Izatova, N. N. (2025). GLOBALLASHUV SHAROITIDA O 'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O 'TKAZISHNING MUHIMLIGI. *Modern Science and Research*, 4(6), 492-496.
12. 12. Джумаева, З. (2025). НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОТИВАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (4), 1571-1574.
13. 13. Джумаева, З.К. (2025). РЕАЛИЗАЦИЯ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3 (6), 57-64.
14. 14. Джумаева, З. (2025). ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ МЕСТНЫХ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ МЕТОДОВ МАРКЕТИНГА. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (4), 105-107.
15. 15. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.
16. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.
17. Жумаева, З. К. (2024). Мобильный Маркетинг Как Эффективное Средство Стимулирования Сбыта Товаров И Услуг. *Miasto Przyszłości*, 54, 697-702.
18. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
19. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.
20. Джумаева, З.К., и Гулямова, Н.Г. (2025). O 'ZBEKISTONDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH. *ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА*, 1 (5), 152-159.
21. Жумаева, З. К., & Ахмедова, Ф. Р. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 323-330.
22. Jumayeva, Z.Q., & Matkarimov, G. (2025). MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O 'SISHIGA TA'SIRI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 205-212.
23. Джумаева, ZQ (2017). ТЕОРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НА РЫНКАХ



- ТРУДА РАЗВИТЫХ СТРАН. *Инновационное развитие* , (4), 64-66.
24. Джумаева, З.К., Мамаджонов, Г.Н. (2024). Пути усиления финансового контроля за использованием средств государственного бюджета. *Европейский журнал бизнес-стартапов и открытого общества* , 4 (1), 61-64.
25. Nematovna R. N. Tourism and digitalization: achievements and challenges for the future //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 40-44.
26. Расулова Н. Н. Государственная поддержка развития малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане //Ученый XXI века. – 2017. – №. 2-2.
27. РАСУЛОВА Н. Н. Роль и развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане //Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2015. – 2015. – С. 288-292.
28. Расулова Н. Н. Динамика и роль иностранного инвестирования в развитии экономики Узбекистана за годы независимости //ББК 65.0501 С 56. – 2018. – С. 269.

